

## VII. ISTE'MOL BOZORI


### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidandir.

2023- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 082 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 18 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 064 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

#### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd so‘m**  
(2023- yil yanvar-iyun oylari)

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 9 216,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,3 % ga o‘sd.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 656,1 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 9,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8 560,3 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati 5,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 378,4 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati 2,4 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd so‘m**  
(2023- yil yanvar-iyun oylari)


	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>9 216,4</b>	<b>105,3</b>
Andijon sh.	2 621,9	109,1
Xonobod sh.	92,9	101,4
<i>tumanlar</i>		
Oltinko‘l	386,1	110,8
Andijon	605,3	100,6
Baliqchi	600,2	102,8
Bo‘ston	141,9	110,0
Buloqboshi	290,6	102,5
Jalaquduq	306,4	111,8
Izboskan	318,2	105,0
Ulug‘nor	125,3	103,0
Qo‘rg‘ontepa	610,6	106,5
Asaka	766,2	100,8
Marhamat	418,9	101,9
Shahrixon	1 166,2	102,8
Paxtaobod	411,5	101,2
Xo‘jaobod	354,1	109,7

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (9,1 %), Xo‘jaobod (9,7 %), Oltinko‘l (10,8 %) va Jalaquduq (11,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 8 560,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,0 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,9 % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga o'sdi va 656,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,1 % ulushiga to'g'ri keldi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda**



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,1 %), Qo'rg'ontepa (99,1 %), Shahrixon (98,7 %) va Buloqboshi (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (16,5 %), Jalaquduq (7,7 %), Andijon (7,2 %) va Oltinko'l (7,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari**

**Hududlar kesimida ma'lumot**

	<b>Hajmi, ming so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 760,7</b>	<b>103,1</b>
Andijon shahar	5 567,8	106,7
Xonobod shahar	2 056,0	99,1
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'1	2 033,0	108,3
Andijon	2 151,7	98,4
Baliqchi	2 828,6	100,8
Bo'ston	1 854,8	108,0
Buloqboshi	1 931,1	100,5
Jalaquduq	1 563,4	109,7
Izboskan	1 265,6	103,0
Ulug'nor	1 983,2	101,3
Qo'rg'ontepa	2 690,1	104,6
Asaka	2 194,7	98,6
Marhamat	2 285,1	99,9
Shahrixon	3 658,2	100,5
Paxtaobod	2 005,4	99,0
Xo'jaobod	3 003,6	106,9


2023- yilning yanvar-iyun oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 760,7 ming. so'mni (2022- yilning yanvar – iyun oyiga nisbatan 103,1 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (5 567,8 ming. so'm), Shahrixon (3 658,2 ming. so'm) va Xo'jaobod (3 003,6 ming. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.


## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi\*

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 378,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 102,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 597,0 mlrd. so'mni (127,1 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 781,4 mlrd so'mni tashkil etdi (99,5 %).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-iyun, foizda)



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo  
aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari**

	<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 378,4</b>	<b>102,4</b>
Andijon shahar	321,5	121,3
Xonobod shahar	2,4	48,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	26,1	133,4
Andijon	44,1	79,3
Baliqchi	79,5	89,8
Bo‘ston	16,4	192,5
Buloqboshi	52,6	104,8
Jalaquduq	45,1	160,1
Izboskan	15,1	128,5
Ulug‘nor	50,3	102,7
Qo‘rg‘ontepa	64,0	188,6
Asaka	140,1	95,8
Marhamat	67,1	76,7
Shahrixon	268,4	97,9
Paxtaobod	119,2	85,5
Xo‘jaobod	66,6	79,7

2023- yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 597,0 mlrd so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida 781,4 mlrd so‘mni tashkil etdi.

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:  
Dehqon bozori**

2023- yilning yanvar-iyun oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 597,0 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (204,1 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.

<b>Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b>		<b>Mrd. so‘m</b>
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b>	<b>204,1</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>176,3</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>77,5</b>
	<b>Tovuq go‘шти</b>	<b>24,6</b>
	<b>Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>24,2</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>14,5</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>19,0</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b>	<b>3,3</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>24,7</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>14,3</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi)	<b>6,8</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>7,7</b>



**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:  
Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so‘m**

2023- yilning yanvar-iyun oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 781,4 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 669,3 mlrd so‘m, qo‘y va echkilar – 105,4 mlrd so‘mni, otlar – 6,3 mlrd so‘mni, parrandalar – 5,4 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd. so‘m
	<b>2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar</b>	<b>387,5</b>
	<b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar</b>	<b>164,0</b>
	<b>1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar</b>	<b>112,3</b>
	<b>Qo‘ylar</b>	<b>102,8</b>
	<b>Otlar</b>	<b>6,3</b>
	<b>Echkilar</b>	<b>2,6</b>
	<b>Kurka, o‘rdak, g‘oz</b>	<b>3,6</b>
	<b>Tovuqlar</b>	<b>1,6</b>
	<b>Quyونlar</b>	<b>0,3</b>
	<b>Qushlar</b>	<b>0,2</b>

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI

2023- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 138 tani tashkil etdi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar 100,0 % ni tashkil qildi.


	Jami <i>mlrd. so‘m</i>	2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, <i>foizda</i>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>175,4</b>	<b>103,7</b>
Andijon shahar	76,9	104,3
Xonobod shahar	2,2	103,8
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	8,7	103,9
Andijon	13,9	101,9
Baliqchi	3,5	103,2
Bo‘ston	4,3	102,7
Buloqbo‘shi	1,5	103,6
Jalaquduq	3,6	103,6
Izboskan	5,1	103,2
Ulug‘nor	2,0	103,5
Qo‘rg‘ontepa	7,1	105,8
Asaka	7,8	103,5
Marhamat	5,5	102,8
Shahrixon	23,1	103,1
Paxtaobod	6,0	103,3
Xo‘jaobod	4,3	103,5

2023- yilning yanvar-iyun oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 175,4 mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 906,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 847,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 118,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektлари savdo hajmi – 1 059,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 97,8 %) tashkil qildi.

**Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari  
ulgurji va chakana savdo aylanmasi  
os'ish sur'ati, foizda**



**AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI  
ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI**




**Hududlar kesimida ma'lumot**

	Hajm, <i>mlrd. so'm</i>	2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 906,7</b>	<b>106,1</b>
Andijon shahar	1 208,8	110,1
Xonobod shahar	3,6	104,9
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	79,2	100,8
Andijon	73,9	99,2
Baliqchi	15,0	101,1
Bo'ston	3,2	100,8
Buloqboshi	8,9	101,2
Jalaquduq	11,0	101,1
Izboskan	10,4	100,8
Ulug'nor	2,4	101,1
Qo'rg'ontepa	42,5	99,9
Asaka	203,8	116,5
Marhamat	18,0	101,4
Shahrixon	43,1	101,0
Paxtaobod	11,2	100,8
Xo'jaobod	171,8	84,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (1 208,8 mlrd so'm), Asaka (203,8 mlrd so'm) va Xo'jaobod (171,8 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 920,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga o'sdi.



2023- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 782 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 9 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 773 tani tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 655,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 90,9 % ni tashkil qildi.

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

	<b>Jami mlrd. so'm</b>	<b>2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 920,1</b>	<b>106,6</b>
Andijon shahar	1 063,8	102,9
Xonobod shahar	13,7	103,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	167,8	125,9
Andijon	288,3	122,1
Baliqchi	191,0	101,8
Bo'ston	72,4	103,7
Buloqboshi	63,7	105,0
Jalaquduq	35,0	122,5
Izboskan	54,7	102,7
Ulug'nor	31,4	105,5
Qo'rg'ontepa	71,6	104,5
Asaka	88,4	103,6
Marhamat	49,5	113,1
Shahrixon	638,7	102,2
Paxtaobod	51,7	105,5
Xo'jaobod	38,3	170,4

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Oltinko'l, Jalaquduq va Marhamat tumanlarida kuzatildi.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Chakana savdo** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

**Chakana tovar aylanmasi** – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochokalari, kredit kartochokalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

**Umumiy ovqatlanish** – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

**Umumovqatlanish aylanmasi** – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

**Tovar zaxiralari** – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

**Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi** – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

**Ulgurji savdo** – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

**Iste'mol tovarlari** – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

**Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar** – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.